

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**SAIDOV O‘LMAS RAXMATOVICH**

**O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDA ISH YURITISHGA  
OID TERMINLARNING BERILISHI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in  
philological science**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Saidov O‘lmas Raxmatovich**

O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida ish yuritishga oid terminlarning berilishi..... 5

**Saidov Ulmas Rakhmatovich**

Representation of administrative terms in explanatory dictionaries of  
Uzbek language..... 27

**Саидов Улмас Рахматович**

Предоставление делопроизводственных терминов в толковых словарях  
узбекского языка..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works  
Список опубликованных работ..... 55

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**SAIDOV O‘LMAS RAXMATOVICH**

**O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDA ISH YURITISHGA  
OID TERMINLARNING BERILISHI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3060 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Shofqorov Abdishukur Musayevich**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Jumayev Tursunali**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Sadinova Nafisa Usmanovna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "20" iyun soat 12<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz). Qarshi davlat universiteti 2-binosi, 202-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (169-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi 17. Tel.: (0375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "08" iyun kuni tarqatildi  
(2023-yil "08" iyun dagi 7 raqamli reestr bayonnomasi).



**N.Shodmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**G.Tojiyeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**X.Jabborov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo tilshunosligida til taraqqiyotini jamiyatning, millatning taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq tarzda ochib berish o‘ta muhim masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. So‘nggi yillarda sohalar terminologiyasini aniqlash ishlari jadallik bilan rivojlanmoqda. Shuningdek, sohaga oid terminlarni tartibga solish, ularning izohli lug‘atlarda berilishini takomillashtirish ehtiyoji ham ortib bormoqda. Sohaviy leksikani, terminologik birliklarni tizimiy ochib berish, ideografik qurilishi, ma’noviy xususiyatlarini aniqlash tilning ijtimoiy vazifalari va tarixiy taraqqiyotini yoritish, terminlarning nominativ, kommunikativ, akkumulyativ funksiyalari mohiyatini oydinlashtirish, kompyuter texnologiyalariga asoslangan elektron leksikografik mahsulotlarning mukammallik va samaradorlik darajasini ta’minlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahon tilshunosligida davlat tilida ish yuritish terminlari tizimini o‘rganish, tartibga solish, lingvistik va leksikografik talqini masalasi tilshunoslar diqqat-markazida bo‘lib kelgan. Muayyan tilning terminologik tizimini, shuningdek, tilning umumiy boyligini ko‘rsatib beruvchi izohli lug‘atlar har qanday tilshunoslik uchun bu boradagi eng yirik ilmiy tadqiqotlardan sanaladi. Tilshunoslikda bu masalada salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritilgan. Hozirda sohalar terminologiyasining shakllanish va taraqqiyot manbalari, termin tushunchasi, terminologik tadqiqotlar tarixi, sistemaviy qurilishi, terminosistemalarning makro va mikrotizimlari, terminlar yasalishining asos va usullari, ideografik strukturasi, tarjimasi, terminlararo sinonimiya, polisemiya, omonimiya, antonimiya va giponimiya hodisalari, korpuslarda til birliklarining dasturiy, lingvistik ta’minotini yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbek tilshunosligida barcha sohalar terminologiyasi yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, aynan ish yuritish sohasiga oid terminlarning semantik-struktur xususiyatlarini tadqiq qilish, til leksik sathidagi o‘rnini aniqlash, terminlardagi ma’nodoshlik, ko‘p ma’nolilik munosabatlariga oydinlik kiritish, ularning leksikografik izohlarini mukammallashtirish kabi masalalar maxsus tadqiq manbai bo‘lmagan. “Davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish, o‘zbek tilidagi mavjud lug‘atlar asosida uzluksiz ta’limning barcha turlari uchun o‘quv lug‘atlarini yaratish”<sup>1</sup> kabi vazifalar ijrosi hamda ish yuritish terminlarining zamonaviy leksikografik tamoyillar asosidagi ilmiy tadqiqi ta’minlanmas ekan, ularning milliy til korpusidan to‘laqonli joy egallashi qiyin. Bugungi kun talabiga monand holda ish yuritish terminlarining zamonaviy leksikografik tamoyillar asosida tabiiy tilga ishlov berish, til korpuslari uchun lingvistik ta’minotni yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek

<sup>1</sup> “Mamlakatimizda ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сонли Фармони // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlari va mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyo tilshunosligida terminologiya masalalari yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Bu yo'nalishda, ayniqsa, G.N.Gornostayev, N.N.Zabinkova, N.N.Kaden, E.Vyuster, X.Felber, V.P.Danilenko, J.K.Seyjer, B.P.Tixomirov, A.S.Gerd, D.S.Lotte, O.P.Frolova, Y.B.Alekseyev, I.A.Gubanov, O.S.Axmanova, I.Grul, M.E.Kirpichnikov, Y.S.Kubryakova, R.Temmermen, A.Z.Sisik, G.I.Shevchenkolarning ishlari diqqatga sazovor<sup>2</sup>.

O'zbek terminologiyasida A.Hojiyev, H.Jamolxonov, R.Doniyorov, O.Usmonov, M.Umarxo'jayev, H.Dadaboyev, I.Sadikova, S.Nurmatova, O.Tursunova, P.Nishonov, O.Ahmedov, H.Mirzaxmedova, M.Abdiyev, I.Yo'ldoshev, Z.Mirahmedova, G'.Ismoilov, S.Muhamedova, S.Mustafayevalar tomonidan olib borilgan izlanishlar e'tiborga molik<sup>3</sup>.

---

<sup>2</sup> Горностаев Г.Н., Забинкова Н.Н., Каден Н.Н. Латинские названия животных и растений. – М.: Изд-во МГУ, 1974. – 146 с.; Felber H. International standardization of terminology: theoretical and methodological aspects. – Paris: Vienna, 1977. – P. 264; Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – 200 с.; Wuster E. Einfuehrung in die Allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexicographie. – Vien: N.Y., 1979 / Bd 1-2. – P. 213; Герд А.С. Формирование терминологической структуры русского биологического текста. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1981. – 112 с.; Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминологических элементов. – М.: Наука, 1982. – С. 154; Фролова О.П. Китайская терминология как лексическая подсистема / Сб. тезисов II конф. по китайскому языкознанию. – М., 1984. – С. 77-79; Алексеев Е.Б., Губанов И.А., Тихомиров В.П. Ботаническая номенклатура. – М.: Изд-во МГУ, 1989. – 166 с.; Sager J.C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1990. – P. 262; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966. – 607 с.; Груль И. К вопросу о номинации некоторых биологических терминов / Словообразование и номинативная деривация в славянских языках. Материалы VI Международной науч. конф. – Гродно, 1998. – С. 211-214; Кирпичников М.Э. Библиография, терминология, номенклатура. – СПб.: Мир и семья, 1998. – 157 с.; Циcык А.З., Шевченко Г.И. Дверь в латинский язык и биологическую терминологию. – Минск, 1999. – 115 с.; Temmerman R. Towards new ways of terminology description. The sociocognitive approach. – John Benjamins Publishing Company, 2000. – P. 258.

<sup>3</sup> Jamolxonov H.A. O'zbek botanika terminologiyasining tarkib topishi va rivojlanish tarixidan: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, O'zFA, 1969. – 247 b.; Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 1977. – 159 b.; Usmonov O. O'zbek tili terminologiyasida leksik variantlar. – Toshkent: Fan, 1986; Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. – Toshkent: Fan, 1996. – 46 b.; Abdiyev M. Sohaviy leksikaning sistem tahlili muammolari. – Toshkent: Xalq merosi, 2004. – 262 b.; Yuldashev I. O'zbek kitobchilik terminologiyasi: Filol. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, Fan, 2004; Mirahmedova Z. O'zbek tilining anatomik terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – Toshkent: Fan, 2010. – 128 b.; Ismailov G'.M. O'zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo'lishi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent. O'zR FA TAI, 2011. – 26 b.; Mustafayeva S. Xitoycha-o'zbekcha tilshunoslik terminlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar Markazi, 2014. – 111 b.;

“Davlat tili haqida”gi Qonun qabul qilinib, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyin va respublikamiz mustaqilligi yillarida rasmiy uslubni, ish yuritish terminologiyasini o‘rganishga alohida e‘tibor berildi: ish yuritish bo‘yicha mukammal qo‘llanmalar yaratildi, qator terminologik lug‘atlar nashr etildi, maqolalar yozildi, dissertatsiyalar yoqlandi.

D.A.Boboxonovning nomzodlik dissertatsiyasida rasmiy ish uslubi tahlil qilingan va hujjatlar matnining grammatik xususiyatlari ochib berilgan bo‘lsa<sup>4</sup>, A.Mamajonovning doktorlik dissertatsiyasida rasmiy uslubdagi matnlarning sintaktik xususiyatlari yoritilgan<sup>5</sup>. Sh.N.Ko‘chimov tadqiqotlarida esa ish yuritish leksikasiga bevosita aloqador bo‘lgan qonunlar tili o‘rganilgan<sup>6</sup>. N.Sadinovanning filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida o‘zbek tili ish yuritish terminlarining hosil bo‘lish usullari aniqlanib, ish yuritish hujjatlarining matniy, uslubiy-sintaktik xususiyatlari o‘rganilgan va keng qo‘llanuvchi sintaktik konstruksiyalar aniqlangan<sup>7</sup>.

Ushbu tadqiqotlarda ish yuritish terminlari atroflicha o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, hali o‘zining to‘liq yechimini topmagan qator muammolar mavjud. Xususan, o‘zbek tilshunosligida aynan ish yuritishga oid terminlar tizimi, ularning struktur-semantik xususiyatlari, o‘zbek tili ish yuritish terminlarining izohli lug‘atlardagi leksikografik tavsiflarini takomillashtirish, ularni o‘zbek tili milliy korpuslari uchun teglash muammolari o‘z tadqiqini kutayotgan masalalardan hisoblanadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek tilidan amaliy foydalanish samaradorligi muammolari” mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ish yuritishga oid terminlarni o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida berilish yo‘llarini aniqlash, ularni o‘zbek tili milliy korpusida semantik teglash hamda statistik, struktur, leksikografik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

o‘zbek tili ish yuritish terminologiyasining alohida mikrotizim sifatida til leksik sistemasidagi o‘rnini aniqlash, tizimga mansub terminlarning bevosita yoki bilvosita “ish yuritishga xos” umumiy semasi asosida birlashishini asoslash;

---

Muhamedova S. va mualliflar jamoasi. Bank-moliya terminlarining o‘zbek tilidagi izohli lug‘ati. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 157 b.

<sup>4</sup> Бабаханова Д.А. Официально-деловой стиль современного узбекского литературного языка: Дисс.... канд. филол. наук. – Ташкент, 1987.

<sup>5</sup> Mamajonov A. O‘zbek tili qo‘shma gaplarining stilistik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1991.

<sup>6</sup> Ko‘chimov Sh.N. O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining tili: Filol. fan. nomz.... diss. va diss. avtoref. – Toshkent, 1995; Ko‘chimov Sh.N. Huquqiy normalarni o‘zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muammolari: Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2004.

<sup>7</sup> Sadinova N. O‘zbek tili ish yuritish terminologiyasi: Filol. fan. bo‘yicha fal. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 54.

o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida (1981- va 2020-yillardagi nashrlar asosida) mavjud ish yuritishga oid terminlarning berilishini o‘rganish va tavsiflash, turli davrdagi izohli lug‘atlardagi statistikasini aniqlash;

o‘zbek tilining ish yuritishga oid terminlarining ma’noviy, tarixiy-etimologik, shakliy-struktur xususiyatlarini tahlil qilish, tavsiflash;

tahlillar natijasiga asoslangan holda ish yuritishga oid terminlarning izohli lug‘atdagi tavsiflarini takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

izohli lug‘atlarda ish yuritish terminlari izohini semantik tahlil va tavsif qilish asosida izohning takomillashuviga erishish;

terminlar uchun illyustrativ misollarni zamon va soha talabiga ko‘ra qayta tanlash;

izohli lug‘atlar uchun ish yuritish terminlarini tanlab olish mezonini ishlab chiqish;

o‘zbek tili milliy korpusida ish yuritish terminlarini semantik teglash bo‘yicha modellar ishlab chiqish;

izohli lug‘atlarda terminlarni tavsiflash tamoyillarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida (1981-yilda nashr etilgan ikki va 2020-yil nashr etilgan besh jildli) mavjud bevosita va bilvosita ish yuritishga oid terminlar tashkil qiladi.

**Tadqiqot predmetini** o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida mavjud ish yuritishga oid terminlarning leksikografik tavsiflari; ularning struktur, semantik xususiyatlari; illyustrativ misollarni tanlash va korpus uchun semantik teglash masalasi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tarixiy-etimologik, tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, komponent, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o‘zbek tili terminologiyasida ish yuritish terminlari alohida mikrotizim sifatida o‘rin egallashi asoslanib, tizimdagi terminlarning bevosita yoki bilvosita “ish yuritishga oid” birlashtiruvchi semasi asosida birlashuvi, bu semaning termin semantik strukturasi yetakchi va ikkinchi darajali o‘rin egallashi dalillangan;

o‘zbek tilining izohli lug‘atida berilgan ish yuritishga oid terminlarning tarixiy-etimologik jihatdan arab, lotin va fransuz tillaridagi o‘zlashmalarning boshqa tillarga nisbatan ustunligi aniqlangan;

o‘zbek tili milliy korpusi uchun ish yuritish terminlari bazasi ish yuritish terminlari (1), leksikografik ta’minot (2) va lingvistik ta’minot (3) kabi tarkibiy qismlardan tarkib topishi ochib berilgan;

o‘zbek tilining milliy hamda ta’limiy korpusida semantik qidiruv natijasini ta’minlash uchun semantik teglash hamda ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasi tarkibi terminologik semantik analizator asosida muayyanlashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

leksikograflar uchun murakkab sanalgan jarayon – izohli lug‘atlarda sohaviy terminologik birliklarni tanlab olishning aniq mezonlari ishlab chiqilgan;

lugʻatda ish yuritishga oid terminlarning berilishi bilan bogʻliq texnik va semantik izohga tegishli xatoliklarni bartaraf etishga doir tavsiyalar berilgan;

leksikografik birliklarning uslubiy belgilar bilan taʼminlanishiga oid amaliy tavsiyalar shakllantirilgan;

tadqiqotda shakllantirilgan ilmiy xulosalar nafaqat umumiy, balki maxsus terminografik tadqiqotlar uchun ham amaliy ahamiyatga egaligi koʻrsatib berilgan;

izohli lugʻatda ish yuritishga oid terminologik birliklar uchun sohaga doir materiallardan dalil miisollar keltirish oʻrinli ekani dalillangan;

ish yuritishga oid terminlar uchun semantik teg kategoriyalari hamda modellarini tuzish algoritmi ishlab chiqilgan;

dissertatsiya natijalari oʻzbek tilining ish yuritish terminlarini tartibga solish, tizimlashtirishda amaliy qoʻllanma vazifasini oʻtaydi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tahlilga tortilgan til materiallarining asosligi, nazariy maʼlumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, natijalarning metodologik mukammalligi, qoʻyilgan muammoning aniqligi, oʻzbek tilining izohli lugʻatida berilgan ish yuritishga oid birliklarni semantik teglash tamoyillarini yaratishda amalda isbotlangan manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sohaviy terminlar tizimi tadqiqi, jumladan, ish yuritish terminologiyasini muayyan ilmiy qarashlar va faktlar bilan boyitishi, ish yuritishga oid terminlarning leksikografik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tizimlashtirish, tartibga solish, semantik oʻzgarishlarni kuzatish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati amaliy tilshunoslik boʻlimlaridan biri – leksikografiya (terminografiya) hamda korpus lingvistikasining fan sifatida oʻqitilish jarayonida dastur, rejalar tuzish va mavzularni bayon etishda manba vazifasini oʻtashi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oʻzbek tilining izohli lugʻatlarida berilgan ish yuritishga oid terminlar tavsifi va tahlilini oʻrganish boʻyicha olingan natijalar asosida:

oʻzbek tili terminologiyasida ish yuritish terminlari alohida mikrotizim sifatida oʻrin egallashi asoslanib, tizimdagi terminlarning bevosita yoki bilvosita “ish yuritishga oid” birlashtiruvchi semasi asosida birlashuvi, bu semaning termin semantik strukturasiida yetakchi va ikkinchi darajali oʻrin egallashi dalillanganiga doir xulosalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan 2020-2022-yillarda bajarilgan AM-FZ-201908172 “Oʻzbek tilining taʼlimiy korpusini yaratish” nomli ilmiy-amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi ToshDOʻTAUning 2022-yil 23-dekabrdaagi 04/1-3541-sonli maʼlumotnomasi). Natijada terminlarning leksikografik tavsiflarini mukammallashtirish, semantik xususiyatlarini izohlashga hissa qoʻshilgan;

oʻzbek tilining izohli lugʻatida berilgan ish yuritishga oid terminlarning tarixiy-etimologik jihatdan arab, lotin va fransuz tillaridagi oʻzlashmalarning

boshqa tillarga nisbatan ustunligi aniqlanganiga doir xulosalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan PZ-202004165 “Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida og‘zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish” nomli ilmiy-amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAUning 2022-yil 23-dekabrda 04/1-3542-sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasidagi sillabuslarni tuzish, darslik yozish va mazkur loyiha materiallarini ishlab chiqish, boyitish imkonini bergan;

o‘zbek tilining milliy hamda ta’limiy korpusida semantik qidiruv natijasini ta’minlash uchun semantik teglash hamda ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasi tarkibi terminologik semantik analizator asosida muayyanlashtirilganiga doir xulosalaridan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Taqdimot” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 26-dekabrda 06-28-1825-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur ko‘rsatuv ilmiy dalillar bilan boyitilib, tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashtirildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, shu jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan 1 ta qisqacha izohli lug‘at, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ulardan 2 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 157 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy qiymati yoritilgan, natijalari tavsiflangan, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqotning joriylanishi, natijalarning e’lon qilinganligi, dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.

Ishning birinchi bobi **“O‘zbek tilining izohli lug‘atlaridagi ish yuritishga oid terminlarining statistik, etimologik va shakliy tavsifi”** deb nomlangan va uch bo‘limni o‘z ichiga oladi. Dastlabki bo‘lim **“Ish yuritish sohasiga oid terminlarning statistik tavsifi”** deb atalib, 2 tomli (1981) va 5 jildli (2020) **“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”** (O‘TIL)<sup>8</sup>da mavjud ish yuritish terminlarining

---

<sup>8</sup> Bundan keyin matnda O‘TIL deb yuritiladi.

semantik, morfologik, struktur xususiyatlari yuzasidan statistik ma'lumotlar keltirilgan:

1-jadval

<b>1. Ish yuritishga oid terminlarning umumiy soni</b>			
5 jildli O'TILda	1708 ta	2 tomli O'TILda	1580 ta
<b>2. So'z turkumlari bo'yicha tavsifi</b>			
2.1. Ot so'z turkumiga oid	1552 ta	2.1. Ot so'z turkumiga oid	1410 ta
2.2. Sifat so'z turkumiga oid	104 ta	2.2. Sifat so'z turkumiga oid	111 ta
2.3. Ravish so'z turkumiga oid	1 ta	2.3. Ravish so'z turkumiga oid	4 ta
2.4. Fe'l so'z turkumiga oid	51 ta	2.4. Fe'l so'z turkumiga oid	55 ta
<b>3. Umumiy berilgan ish yuritish terminlari soni</b>			
5 jildli O'TILda	1315 ta	2 tomli O'TILda	1315 ta
<b>4. Lug'atning bir-birida takrorlanmagan terminlar soni</b>			
5 jildli O'TILda	393 ta	2 tomli O'TILda	265 ta
<b>4. Ko'p ma'noli bo'lsa, barcha yoki birdan ortiq ma'nosi ish yuritishga tegishli bo'lgan terminlar soni</b>			
5 jildli O'TILda	467 ta	2 tomli O'TILda	433 ta
<b>5. Ko'p ma'noli so'z bo'lsa, bitta ma'nosi ish yuritishga tegishli bo'lganlar soni</b>			
5 jildli O'TILda	110 ta	2 tomli O'TILda	96 ta
<b>6. Bosh ma'nosi ish yuritishga tegishli bo'lgan terminlar soni</b>			
5 jildli O'TILda	98 ta	2 tomli O'TILda	106 ta
<b>7. Bir ma'noli ish yuritish terminlari soni</b>			
5 jildli O'TILda	1029 ta	2 tomli O'TILda	944 ta
<b>8. Hosila (ko'chma) ma'nosi ish yuritishga tegishli bo'lgan terminlar soni</b>			
5 jildli O'TILda	151 ta	2 tomli O'TILda	128 ta
<b>9. O'z qatlam terminlari soni</b>			
5 jildli O'TILda	519 ta	2 tomli O'TILda	485 ta
<b>10. O'zlashgan qatlam terminlari soni</b>			
5 jildli O'TILda	1189 ta	2 tomli O'TILda	1095 ta
<b>11. Sodda tub terminlar soni</b>			
5 jildli O'TILda	832 ta	2 tomli O'TILda	746 ta
<b>12. Hosil qilingan (sodda yasama) terminlar soni</b>			
5 jildli O'TILda	645 ta	2 tomli O'TILda	565 ta
<b>13. Qo'shma terminlar soni</b>			
5 jildli O'TILda	62 ta	2 tomli O'TILda	107 ta
<b>14. Murakkab terminlar soni</b>			
5 jildli O'TILda	151 ta	2 tomli O'TILda	128 ta
<b>15. Juft terminlar soni</b>			
5 jildli O'TILda	15 ta	2 tomli O'TILda	22 ta
<b>16. Umumiste'mol terminlari soni</b>			
5 jildli O'TILda	1633 ta	2 tomli O'TILda	1492 ta
<b>17. Tarixiy va eskirgan terminlar soni</b>			
5 jildli O'TILda	75 ta	2 tomli O'TILda	88 ta

Aytib o'tish joizki, 2 tomli va 5 jildli o'zbek tilining izohli lug'atida ish yuritishga oid terminlar maxsus leksik pometa bilan berilmagan. Bu esa soha terminlari ma'noviy tabiati va lisoniy qiymatini oydinlashtirish, terminlarning semantik tarkibi, O'TILDagi tavsifi, talqini, illyustrativ misollari asosiy manba

vazifasini o'tashi uchun ushbu masalani alohida tadqiq etish, ularni mavjud lug'atlarda aks ettirish zarurati borligini bildiradi.

Bobning **“Ish yuritish faoliyatiga oid terminlarning etimologik tavsifi”** deb nomlangan bo‘limida O‘TILda berilgan ish yuritish terminlarining etimologik tarkibi, o‘z va o‘zlashma qatlamga ko‘ra tadqiqi masalalari o‘rganildi.

Quyidagi jadvalda 2 tomli va 5 jildli O‘TILda mavjud ish yuritish terminlariga xos so‘zlarning tarixiy-etimologik tavsifi berildi. 2 tomli O‘TILda ish yuritish sohasiga oid jami **1580** ta leksema-termin aniqlandi.

2-jadval

<b>№</b>	<b>Tarixiy-etimologik asosi</b>	<b>Miqdori</b>	<b>Foizda</b>
<b>1.O‘z qatlamga mansub leksema-terminlar</b>			
1	O‘zbekcha asosli leksema-terminlar	165	10%
2	Arabcha so‘z+o‘zbekcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	119	8%
3	Kalkalash usulida hosil qilingan leksema-terminlar	141	8%
4	Baynalminal so‘z+o‘zbekcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	27	2%
5	Ruscha so‘z+o‘zbekcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	19	1%
6	Fors-tojikcha so‘z+o‘zbekcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	14	1%
	<b>Jami</b>	<b>485</b>	<b>30%</b>
<b>2. O‘zlashma qatlamga mansub ish yuritish leksema-terminlari</b>			
1	Rus tili orqali boshqa xorijiy tillardan o‘zlashgan leksema-terminlar	409	27%
2	Arab tilidan o‘zlashgan leksema-terminlar	358	23%
3	Rus tilidan o‘zlashgan leksema-terminlar	166	10%
4	Arabcha so‘z+forscha vosita shaklidagi leksema-terminlar	86	5%
5	Fors-tojik tilidan o‘zlashgan leksema-terminlar	67	4%
6	Fors-tojikcha so‘z+arabcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	9	1%
	<b>Jami</b>	<b>1095</b>	<b>70%</b>

5 jildli (2020) O‘TILda ish yuritishga oid jami **1708** ta leksema-termin mavjud.

3-jadval

<b>№</b>	<b>Tarixiy-etimologik asosi</b>	<b>Miqdori</b>	<b>Foizda</b>
<b>1.O‘z qatlamga mansub leksema-terminlar</b>			
1	O‘zbekcha asosli leksema-terminlar	158	10%
2	Arabcha so‘z+o‘zbekcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	131	7%
3	Kalkalash usulida hosil qilingan leksema-terminlar	151	8%
4	Baynalminal so‘z+o‘zbekcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	43	3%
5	Ruscha so‘z+o‘zbekcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	20	1%
6	Fors-tojikcha so‘z+o‘zbekcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	15	1%
	<b>Jami</b>	<b>519</b>	<b>30%</b>
<b>2. O‘zlashma qatlamga mansub ish yuritish leksema-terminlari</b>			
1	Arab tilidan o‘zlashgan leksema-terminlar	373	22%
2	Fors-tojik tilidan o‘zlashgan leksema-terminlar	67	4%

3	Rus tilidan o‘zlashgan leksema-terminlar	63	4%
4	Arabcha so‘z+fors-tojikcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	65	4%
5	Fors-tojikcha so‘z+arabcha vosita shaklidagi leksema-terminlar	13	1%
6	Lotin tilidan o‘zlashgan leksema-terminlar	251	15%
7	Fransuz tilidan o‘zlashgan leksema-terminlar	111	7%
8	Yunon tilidan o‘zlashgan leksema-terminlar	67	4%
9	Ingliz tilidan o‘zlashgan leksema-terminlar	67	4%
10	Nemis tilidan o‘zlashgan leksema-terminlar	52	3%
11	Italyan va polyak tilidan o‘zlashgan leksema-terminlar	13	1%
12	Kombinatsiya usulida o‘zlashgan leksema-terminlar	47	3%
	<b>Jami</b>	<b>1189</b>	<b>70%</b>

Jadvallardan ma’lum bo’ladiki, 2 tomli O‘TILda lotin, ingliz, yunon, nemis, fransuz, italyan, polyak va boshqa tillardan olingan so‘zlar asosan rus tili orqali kirib kelgan terminlar sifatida izohlangan hamda umumiy miqdori 27% ni tashkil etadi. 5 jildli izohli lug‘atda esa sanab o‘tilgan tillardan o‘zlashgan terminlar etimologiyasi to‘liqroq tavsiflangan. Umumiy miqdori esa 35% ni tashkil etadi. Shuningdek, har ikkala O‘TILda arab tiliga mansub birliklar ham salmoqli o‘rinni egallaydi.

I bobning **“Ish yuritishga oid terminologik birliklarning shakliy tavsifi”** deb nomlangan uchinchi bo‘limida terminlarning struktur tavsifini o‘rganish orqali milliy va o‘zlashma terminlardan iborat ish yuritish terminologiyasining ayrim shakily xususiyatlari tahlilga tortildi, taklif va mulohazalar keltirildi.

O‘rganishlardan ma’lum bo’ladiki, ish yuritish terminlarini hosil qilishda 20 ga yaqin so‘z yasovchi qo‘shimcha ishtirok etgan, lekin ularning bu soha terminlarini hosil qilishdagi imkoniyatlari bir xil emas. *-ma, -chi, -lik, -(u)v, -q(-iq, -uq, -ik), -im, -dor, -lash, -lashtirish* kabi qo‘shimchalar va *-noma, -xona* affiksoidlarining ish yuritish terminlarini hosil qilishda faol ishtirok etishi kuzatiladi<sup>9</sup>. Ish yuritish terminologiyasida mavjud terminlarning shakliy xususiyatiga ko‘ra tavsifini amalga oshirishda ularni uch (sodda, qo‘shma, juft) guruhga ajratish an’anaviy tasnifga xosdir. So‘zlar struktur tarkibi jihatidan turlarga ajratilganda ko‘p hollarda o‘zak miqdoriga ko‘ra sodda, qo‘shma, juft, takror, murakkab, birikmali, tarkibli kabi terminlar qo‘llangan holda guruhlanadi. Shuningdek, terminlarning morfologik jihatdan asosan ot so‘z turkumiga oidligi, formal-struktur jihatdan qisqartma shakldagi terminlar ham mavjudligi tabiiy holat ekanligini ko‘rsatadi (ba’zi soha terminlarida abbreviatsion terminlar mavjud).

Tadqiqotimiz davomida esa ish yuritishga bevosita va bilvosita aloqador terminlar struktur jihatdan quyidagi guruhlarga ajratildi:

1) sodda terminlar; 2) qo‘shma terminlar; 3) juft terminlar; 4) birikma terminlar; 5) qisqartma terminlar.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Izohli lug‘atlarda ish yuritish sohasiga oid terminlarning semantik tavsifi”** deb nomlangan va uch bo‘limni o‘z ichiga oladi. Dastlabki bo‘lim ish yuritish terminlarining semantikasiga bag‘ishlangan.

<sup>9</sup> Sadinova N. O‘zbek tili ish yuritish terminologiyasi: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. ... (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 54 b.

O‘TILda berilgan ko‘p ma’noli ayrim leksemalar izohiga e’tibor qaratamiz:

**TAKLIF** [*a.* – buyruq, topshiriq, vazifa; qiynash; burch, majburiyat] **1** Muhokama qilish, amalga oshirish yoki qabul qilish uchun taqdim etilgan fikr, masala, maslahat va sh.k. ... **2** Tashrif buyurish, qadam ranjida qilish va sh.k. haqidagi iltimos, so‘z, chaqiriq. ....

**Taklif qilmoq** (*yoki etmoq*) Taklif bildirmoq, taklifini aytmoq. ...

**3 iqt.** Muayyan vaqtda va muayyan narxlar bilan bozorga chiqarilgan va chiqarilishi mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdorini ifodalovchi tushuncha<sup>10</sup>;

**TEZIS** [*yun.* thesis – qoida; isbot] **1** Ilmiy asar, maqola, ma’ruza va sh.k.dagi asosiy g‘oyalarning qisqa va lo‘nda bayoni. ... **2 mnt.** Haqiqat ekanligi isbotlanishi lozim bo‘lgan hukm, mulohaza, fikr<sup>11</sup>;

**TENGLIK 1** Teng holatga egalik, teng holatlilik (hajm-o‘lcham, sifat, mavqe va b. jihatdan). *Uchburchaklar tengligi. Kuchlar tengligi.* **2 huq.** Jamiyatdagi barcha shaxs, guruh, qatlam va sh.k.ning qonun oldida baravarligi, teng huquqliligi; haq-huquqda baravarlik. ... **3 mat.** Muayyan kattaliklar o‘rtasida bir kattalik ikkinchisiga teng ekanini ko‘rsatuvchi o‘zaro nisbat<sup>12</sup>.

Izohlardan ko‘rinadiki, O‘TILda **taklif** leksemasi ko‘p ma’noli so‘z sifatida: uchinchi ma’nosi *iqt.* pometasi bilan berilgan bo‘lib, iqtisod sohasiga tegishlilikni bildiradi. Lekin leksemaning birinchi va ikkinchi izohlari esa to‘laligicha ish yuritishga mansubligi seziladi. Shuningdek, **tezis** so‘zining ikkinchi ma’nosi *mnt.* pometasi ostida mantiq ilmiga oidlikni bildirsa, birinchi bosh ma’nosi ish yuritishga tegishlidir. **Tenglik** leksemasining izohlaridan sezish mumkinki, uning ikkinchi ma’nosi *huq.* pometasi bilan huquqshunoslikka oid, uchunchi ma’nosi *mat.* pometasi ostida matematikaga mansub terminligini bildirmoqda. Birinchi ma’nosida esa mavqeni bilgilash jihatidan ish yuritish sohasiga tegishlilik ham seziladi. Lekin terminlarning ish yuritishga tegishli izohlarida maxsus belgi qayd etilmagan. Aytish joizki, terminlarning semantik tavsifini tadqiq qilish hamda umumiy xulosalash orqali ish yuritish terminlarining izohli lug‘atda berilishiga doir mezonlarni belgilash, ish yuritishga xos jihatlarini lug‘atlarda maxsus pometa orqali ifoda etish zarur deb hisoblaymiz.

O‘TIL-2 va O‘TIL-5ga kiritilgan ish yuritishga bevosita va bilvosita aloqador terminologik birliklarning qo‘llanish o‘rnini hisobga olib, ularni quyidagi mazmuniy guruhlariga birlashtirishni lozim deb topdik:

1. Ish yuritishda qo‘llanadigan normativ-huquqiy, me’yoriy va rasmiy hujjatlar nomi: *nizom, ustav, konstitutsiya, farmon, qaror, ariza, yo‘riqnoma, tushuntirish xati, kafolat xati, buyruq, farmoyish, tarjimayi hol* kabilar;

2. Korxonalar, tashkilot, muassasalarda ish yuritish bilan bog‘liq turli yozishmalar, xat va hujjatlar, hujjat qismlari nomini ifodalovchi terminlar: *ahd, axborotnoma,*

<sup>10</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti” Davlat unitar korxonasi, 2020. 3-jild. – B. 645.

<sup>11</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti” Davlat unitar korxonasi, 2020. 4-jild. – B. 52.

<sup>12</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti” Davlat unitar korxonasi, 2020. 3-jild. – B. 64.

*band, xabarnoma, byulleten, varaqa, chipta, da'vatnoma, faxriy yorliq, hayfsan, hujjat, iltimosnoma, nusxa, ro'yxat va boshq.;*

3. Moliya-bank, iqtisod, tijorat, ishlab chiqarish sohalariga tegishli tushunchalarni ifodalovchi terminlar: *soliq, daromad, devalvatsiya, import, eksport, investitsiya, monopoliya, kamomad, kirim-chiqim, boj, oldi-sotdi, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, aksiya* kabilar;

4. Xizmat ko'rsatish, turli soha va fan tarmoqlariga oid tushunchalarni ifodalovchi terminlar: *aprobatsiya, atama, termin, vaucher, illyustrativ, inventar, karta, katolog, metod, metodologiya* kabilar;

5. Huquqiy tushunchalarni anglatuvchi terminlar: *bitim, javobgarlik, jazo, jinoiy javobgarlik, ijro varaqasi, kechirim, impichment, korrupsiya* kabilar;

6. Siyosiy tushunchalarni ifodalovchi terminlar: *saylov, saylovchi, nomzod, referendum, sessiya, plenum, majlis, kengash, kvota, yig'ilish, qurultoy, qo'shma majlis, yalpi majlis, ovoz berish* kabilar;

7. Ijtimoiy-siyosiy ma'noga ega shaxs otlarini atovchi birliklar: *prezident, vazir, hokim, senator, direktor, deputat, oqsoqol, siyosatchi, siyosatshunos* va boshq.;

8. Mulkka egalik munosabatiga ko'ra shaxs otlarini atovchi terminlar: *mulkdor, biznesmen, tadbirkor, bankir, aksiyador, aksioner, hissador, investor, menejer* va boshq.;

9. Ijtimoiy qatlamiga ko'ra shaxs otlarini ifodalovchi terminlar: *tadbirkor, ishchi, savdogar, abituriyent, ziyoli, fuqaro* va boshq.;

10. Ish yuritishda amalga oshiradigan vazifasiga ko'ra shaxs otlarini ifodalovchi terminlar: *bosh direktor, bosh hisobchi, boshqaruvchi, ijrochi, ish beruvchi, ish boshqaruvchi, kafil, korrektor, kotib, kotiba, laborant, ma'mur, munshiy, metodist, mudir, stajyor, taftishchi, yordamchi, referent* kabilar;

11. Boshqaruv, ma'muriy, siyosiy organlar, muassasa, davlat va jamoat tashkilotlari, turli kengash va bo'lim nomlarini ifodalovchi terminlar: *parlament, senat, vazirlik, agentlik, inspeksiya, sud, hokimlik, ijro hokimiyati, jamoa, jamoat, tuzum, ochiq aksiyadorlik jamiyati, milliy-madaniy markaz, siyosiy partiya, korxonona, kompaniya, mahalla, kasaba uyushmasi, firma, shu'ba korxonasi* kabilar;

12. Ma'muriy-hududiy birlik nomlari: *respublika, viloyat, tuman, daha, mahalla* kabilar;

13. Diplomatiya sohasiga tegishli terminlar: *konsul, elchi, attashe, diplomatik korpus, diplomat, bayonot, memorandum, konvensiya, pakt, nota, ratifikatsiya, deklaratsiya, konsensus, veto* va boshq.

14. Ish yuritishda ma'lum bir holat, harakat, hodisa, jarayon nomini bildiruvchi terminlar: *abolitsiya, absentizm, aybdorlik, akademik ta'til, aloqa, attestatsiya, auksion, bankrotlik, bixillastirish, boykot, vasiylik, vakant, xatboshi* va boshq.

15. Ish yuritishda ma'lum bir ramz, belgi-qayd, predmet, narsa-buyum va jism nomini bildiruvchi terminlar: *banderol, bankomat, bosma taboq, davriy nashr, faks, faksimile, faktura, gerb, grif, ilova, imzo, konvert, muhr, nishon, pochta manzili, sana, tamg'a, taqvim, tikmajild, xatjild, zakalat* kabilar.

Shuningdek, tahlillarimiz natijasida O‘TILning keyingi nashrlarida ish yuritishga oid terminlarni *ish yurt.* pometasi bilan berish lozim deb hisoblaymiz.

II bobning ikkinchi bo‘limi bir va ko‘p ma‘noli ish yuritish terminlari tavsifiga bag‘ishlangan. Ish yuritish terminlari, umuman, terminlarning bir va ko‘p ma‘noliligi masalasida terminologiyada turlicha fikrlar mavjud. Jumladan, tilshunos S.Usmonov ham bir ma‘nolilikni terminga xos asosiy xususiyatlardan biri sifatida baholaydi: “Ilm-fan, texnika, qishloq xo‘jaligi va san‘atga oid tushunchalarning aniq nomini bildiruvchi bir ma‘noli so‘z va birikmalar terminlar deyiladi. So‘z ko‘p ma‘noga, ya‘ni qo‘shimcha ma‘nolarga ega bo‘ladi, lekin termin bunday xususiyatga ega emas. Termin ham so‘z, ammo u odatdagi so‘zlardan ma‘nosining aniqligi, bir ma‘noliligi bilan farqlanadi”<sup>13</sup>. Tilshunos B.Mengliyev umumiste‘mol leksika va termin munosabati doirasida “...terminlarni ham asl zotidan uzilgan mustaqil leksemalar sifatida qarash lozim. Bunga terminlarga qo‘yiladigan bir ma‘nolilik talabi ham asos bo‘ladi. Demak, termin va umumiste‘mol leksika bir narsaning ikki qirradi, bir leksemaning ikki ma‘noda qo‘llanilishi emas”<sup>14</sup> deya fikr bildiradi.

Ushbu bo‘limda bir ma‘noli va ko‘p ma‘noli ish yuritish terminlarini tavsiflashda terminning ham leksema maqomida izohli lug‘atda qayd etilishi va bu leksema mavjud sememalar miqdoriga tayanildi.

Shunindek, polisemantik so‘zlarning ish yuritishga mansub sememalarining o‘zaro munosabatidan kelib chiqib quyidagicha tasniflandi:

- 1) bir tarmoq doirasidagi polisemantik ish yuritish terminlari;
- 2) turli tarmoq doirasidagi polisemantik ish yuritish terminlari;
- 3) umumiste‘mol leksema sifatida ham qo‘llaniluvchi polisemantik ish yuritish terminlari.

**Bir tarmoq doirasidagi ish yuritish terminlarining** barcha sememalari ish yuritishning ma‘lum bir sohasiga tegishli bo‘ladi. Masalan, **sanksiya** termini ko‘p ma‘noli bo‘lib, O‘TILda uning to‘rtta ma‘nosi qayd qilingan:

**1** Hujjat, qaror va sh.k.ning oliy organ tomonidan tasdiqlanishi, shunday tasdiq natijasida hujjat, qarorning qonuniy kuchga ega bo‘lishi. **2** Huquqiy me‘yorning, qonun moddasining ushbu qonun buzilishidan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar ko‘rsatib o‘tilgan qismi. **3** Xalqaro huquqda: xalqaro majburiyatlarga va xalqaro huquq normalariga rioya qilmagan, ularni buzgan davlatga nisbatan qo‘llaniladigan (iqtisodiy, moliyaviy yoki harbiy) ta‘sir chorasi.... **4** Jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsga nisbatan majburiy chora (qamoq, tintuv va sh.k) ko‘rish uchun prokuror tomonidan berilgan ruxsat”<sup>15</sup>.

Ko‘rinadiki, **sanksiya** terminining har to‘rtala ma‘nosi ham yuridik sohaga oid. Keltirilgan ma‘nolarning barchasini “huquqiy-me‘yoriy hujjat”, “majburiylik” semalari birlashtirib turadi. Biroq ular tatbiq etilish obyektiga ko‘ra bir-biridan o‘zaro faqlanadi.

**Turli tarmoq doirasidagi polisemantik ish yuritish terminlari.** Bunday ish yuritish terminlari turli sohalar doirasida qo‘llansa-da, biroq har doim termin

<sup>13</sup> Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati. – Toshkent: TDYUI nashriyoti, 2006. – B. 23.

<sup>14</sup> Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Qarshi, 2004. – B. 145.

<sup>15</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 3-jild. – B. 440.

maqomida bo‘ladi. Birinchi turdan farqli o‘laroq, bu tur polisemantik terminlar sememalari orasida ma‘noviy farqlar ko‘proq seziladi. Lekin sememalarning tarkibida qandaydir umumiy semaning mavjud ekanligi terminlar polisemantikligini ta‘minlovchi vosita hisoblanadi. Masalan, **amortizatsiya** termini iqtisodiyot va texnika sohasida qo‘llanilib, quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi:

“**1** Mehnat vositalarining (mashina, jihoz, bino va sh.k.) eskirishiga qarab, ular qiymatini muayyan davr mobaynida ishlab chiqarilayotgan mahsulot ustiga qo‘ya borish, shu yo‘l bilan eskirgan vositalar bahosini qoplash. **2** Alohida shaxs yoki tashkilotning uzoq muddatli qarzni asta-sekin (hissalarga bo‘lib to‘lab) yoki qarzni sotib olib uzishi. **3** Yo‘qotish, o‘g‘irilatish va h.k. oqibatida qarz majburiyatini haqiqiy emas deb e‘tirof etish. **4** Avtomashina, samolyot, inshoot va sh.k.ning urilish zarbini, silkinishni kamaytirish”<sup>16</sup>.

Ta‘riflardan ko‘rinadiki, leksemaning **1-**, **2-**, **3-**ma‘nolari iqtisodiyot sohasiga oid bo‘lsa, **4-**ma‘nosi texnikaga oid. Iqtisodiyot sohasiga oid ma‘nolar “qarzni, zararni qoplash” semasi orqali umumiylikka ega bo‘lsa, texnikaga oid **4-**ma‘no “zarardan saqlash” semasi orqali alohidalikka, “zarar” semasi asosida o‘zidan oldingi ma‘nolar bilan umumiylikka ega bo‘ladi.

**Umumiste‘mol leksema sifatida ham qo‘llaniluvchi polisemantik ish yuritish terminlari.** Ish yuritish terminlarining katta qismi umumiste‘mol leksemaning ma‘nosini maxsuslashtirish orqali hosil qilingan. Natijada, tilda leksema ham umumiste‘mol birlik, ham termin sifatida qo‘llanila boshlaydi. Bu holatda leksemani polisemantik birlik sifatida qarash yoki omonim munosabatdagi leksemalar sifatida baholash borasida tilshunoslar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan. Bizningcha, bu vaziyatda uzil-kesil qaror chiqarish mushkul. Chunki ayrim ish yuritish terminlarida umumiste‘moldagi ma‘nosi bilan aloqadorlik yaqqol sezilib tursa, ba‘zilarida bog‘liqlik juda kuchsiz yoki yo‘qolgan. Masalan, **ajrim** leksemasining umumiste‘moldagi ma‘nosi bilan yuridik termin sifatida sud qarorini anglatuvchi ma‘nosi orasida aloqadorlik juda kuchsiz. Bizningcha, bunday holatda ular omonim sifatida qaralishi kerak. Biroq umumiste‘mol leksemaning ma‘nosini maxsuslashtirish orqali hosil qilingan ko‘plab ish yuritish terminlarida ma‘noviy bog‘liqlik juda kuchli va ularning polisemantik leksema sifatida baholanishi maqsadga muvofiq. Masalan, **guvoh** terminining ma‘nolariga e‘tibor beraylik:

“**1** Bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan yoki ularning haqiqatan ham bo‘lganligini tasdiqlash uchun shu ish bo‘lgan joyga maxsus chaqirilgan kishi; shohid. *Sidiqjon o‘n bir guvohni yoniga olib, rayonga jo‘nadi.* A.Qahhor, *Qo‘shchinor chiroqlari.* **2** Sud yoki tergovdagi ish yuzasidan o‘z bilganlarini aytib berish uchun sudga chaqirilgan kishi. *Sudga guvohlarni chaqirmoq...* **3** Voqea-hodisa, fikr, holat va sh. k.ning to‘g‘riligini tasdiqlovchi narsa; dalil. *Kishini mehnat ulug‘laydi. Siz-biz ko‘rgan hurmat-ehtirom – buning guvohi.* Gazetadan”<sup>17</sup>.

<sup>16</sup> O‘sha manba: – B. 79.

<sup>17</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 1-jild. – B. 515.

**Guvoh** leksemasi ikkinchi ma'nosi bilan huquqshunoslik sohasining ish yuritish termini hisoblanadi. E'tibor berilsa, "ko'rgan, bilganlarini aytib beruvchi kishi" semasi orqali birinchi va ikkinchi ma'nolar uzviy aloqadorlikka ega va bu holatda omonimlik haqida gapirish mumkin emas. Chunki omonimlikda ma'noviy bog'liqlikning uzilishi talab qilinadi.

Xulosa qilganda, ish yuritish terminlarida ko'p ma'nolilikning kelib chiqishi, asosan, terminlarning turli sohalarda o'ziga xos ma'nolarda qo'llanilishi bilan bog'liq. Ish yuritish termini bir sohadan ikkinchi sohaga ko'chayotganda o'zining mohiyatiga aloqador semalarni saqlash barobarida o'tayotgan sohaning xususiyatlaridan kelib chiqib, unga qo'shimcha semalar yuklanadi. Natijada u polisemantik terminga aylanadi.

II bobning "**Leksik-semantik munosabatiga ko'ra ish yuritish sohasi terminlari tavsifi**" deb nomlangan uchinchi bo'limida ish yuritishga oid terminlarni mazmuniy guruhlarga birlashtirish, ish yuritish doirasida qo'llanadigan terminlarda uchraydigan sinonimiya, antonimiya, omonimiya, giponimiya kabi hodisalar haqida batafsil to'xtab o'tildi.

Ishning uchinchi bobi "**O'zbek tilining izohli lug'atlarida ish yuritishga oid terminlar tavsifini takomillashtirish vazifalari**" deb nomlanadi. Bobning "**Mavjud izohli lug'atlardagi ish yuritish terminlari tavsiflarini takomillashtirish masalalari**" nomli birinchi bo'limida ish yuritish terminlarini tartibga solish, ularning izohli lug'atlarda berilishini takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratildi.

O'zbek tilining izohli lug'atida ish yuritish terminlarini tanlab olish mezonini va uning izohini takomillashtiradigan bir necha omillar bor.

Masalaning birinchi tomoni shundan iboratki, ish yuritish terminlari arxaik xarakterga egaligi yoki istorizm shakliga kelib qolganligi natijasida uning o'rniga yangi muqobil terminga ehtiyojning paydo bo'lishi sababli ayrim muammolar yuzaga keladi.

Quyidagi terminning izohiga e'tibor qaratamiz.

**MUNSHIY** [*a. asoschi, yaratuvchi, quruvchi, tuzuvchi, yozuvchi.*] *tar.* Saroyda yozuv ishlarini olib boradigan kotib...<sup>18</sup>.

Ushbu termin bugungi kunda eskirganligi, iste'molda emasligi, tarixiy terminga aylanishi natijasida nutqiy nafaollikka uchragan va davr talabi bilan yangi terminga ehtiyoj paydo bo'lgan.

Ikkinchi masala, uning izohida. E'tibor berilsa, **munshiy** termini tarkibidagi "asoschi", "yaratuvchi", "quruvchi", "tuzuvchi", "yozuvchi" ma'nolari bugungi kun o'quvchisini chalg'itib yuboradi. Sababi bu termin tarkibidagi izohlar bir vaqtning o'zida bir nechta leksemaning ta'rifini anglatmoqda. *munshiy* – *asoschi*, *munshiy* – *yaratuvchi*, *munshiy* – *quruvchi*, *munshiy* – *tuzuvchi*, *munshiy* – *yozuvchi*. Ilmiy mushohadasi yetarli bo'lmagan o'quvchining ko'z o'ngida, albatta, *yozuvchi* deganda – *adib(nosir)*, *quruvchi* deyilsa – *arxitektor* gavdalanadi. Bunday xulosaga kelishga terminga berilgan izoh sababchi. Demak, terminlar izohi o'ta

---

<sup>18</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti" Davlat unitar korxonasi, 2020. 2-jild. – B. 642.

jiddiy jarayon bo‘lib, bitta so‘z yoki so‘z birikmasining ahamiyati muhim hisoblanadi. Izohdagi “asoschi”, “yaratuvchi”, “quruvchi”, “tuzuvchi”, “yozuvchi” leksemalari oldidan *matn, xat, ro‘yxat* so‘zlari qo‘yilsa, ta’rif yorqinlashadi. Ya’ni *matn asoschisi, matn yaratuvchi, ro‘yxat tuzuvchi, xat yozuvchi* birikmalari paydo bo‘ladi va munshiyning faoliyati yozuv-chizuv ishlari bilan bog‘liq shaxs ekanligi oydinlashadi. Tavsif davomida munshiy “saroyda yozuv ishlarini olib boradigan kotib” deya izohlanadi, terminning ma’nosini to‘la tushunish uchun o‘quvchi endi boshqa termin, ya’ni **kotib** leksemasi izohiga murojaat qilishiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida **kotib** termini shunday izohlanadi:

“**KOTIB** [*a. (xat) yozuvchi, (kitob) ko‘chiruvchi*] **1 map.** Ro‘yxat tuzish, qo‘lyozmalarni ko‘chirish bilan shug‘ullangan shaxs, mirza. **2** Idora va muassasalarda, lavozimli kishilar, yozuvchilar va sh.k. shaxslar huzurida yozuv-chizuv ishlari va yozishmalarni olib boruvchi xodim, shaxs. **3** Idora, muassasa va sh.k.lar kotibiyatiga rahbarlik qiluvchi, kotibiyat ishlariga mas’ul xodim. **4** Maxsus kengash, yig‘inlarning bayonnoma va sh.k. yozuv-chizuv ishlarini olib boruvchi shaxs”<sup>19</sup>.

Ushbu termin ko‘p ma’nodlilik xususiyatiga ega bo‘lib, davrlar o‘tib uning vazifalari o‘zgara borgan, lekin umumiy jihatdan barcha ta’riflar vazifasiga ko‘ra “yozuv-chizuv ishlari bilan shug‘ullanadigan shaxs” ma’nosini bildiradi. Terminning birinchi ma’nosi izohiga e’tibor berilsa, ma’noni to‘liq uqish uchun **mirza** leksemasi izohiga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi:

“**MIRZA** [*a. +f.*] **1 map.** Yozuv-chizuv ishlarini olib borgan lavozimli kishi; kotib.... **2 ko‘chma** Savodli, o‘qimishli odam. **Mirza yigit** Savodli, o‘qimishli yosh kishilarga xurmat bilan murojaat etish shakli. **3 esk.** Yuqori tabaqalarga mansub kishi; janob...”<sup>20</sup>.

Ko‘rinyaptiki, **kotib** va **mirza** terminlarining ma’nolari bir-biriga havola qilinishi, bosh ma’nolari bilan **munshiy** terminiga sinonim ekanligi turli izohlar orqali ayon bo‘lmoqda. Bu hol lug‘atdan foydalanuvchi uchun terminlar ma’nosini to‘la tushunishda mushkullik tug‘diradi. Ushbu terminlarga berilgan ta’riflar umumiy va hammaga tushunarli qoidalar bilan yoritilishi maqsadga muvofiq. Agar termin yuqoridagi qarama-qarshiliklar, ma’nodoshlar, g‘aliz qoidalar, nofaol atamalar bilan izohlansa, o‘quvchida ular yuzasidan savollar paydo bo‘laveradi. Izohli lug‘atlar ortiqcha ta’rif va g‘alizliklardan xoli bo‘lishi kerak.

Masalaning ikkinchi tomoni ish yuritish terminlaridagi ko‘p ma’nodlilik bilan bog‘liq. Polisemantik terminning barchaga ma’lum bo‘lgan ma’nosi terminlik semasidan ko‘ra faol bo‘lgan taqdirda nutqiy faol bo‘lgan ma’nosi birinchi navbatda berilishi, terminlik ma’nosi qo‘llanilish darajasiga qarab maxsus pometa bilan ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq. Sababi pometasiz izohlanayotgan ba’zi polisemantik so‘zlarni terminlik xususiyatini anglash mushkul bo‘ladi. Masalan, O‘TILda **amal** leksemasining 8 ta ma’nosi mavjud bo‘lib, ish yuritishga tegishli semalari ham mavjud. Biroq bu holat maxsus tadqiq qilinganda anglashiladi, kitobxon buni anglamasligi mumkin.

<sup>19</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti” Davlat unitar korxonasi, 2020. 2-jild. – B. 413.

<sup>20</sup> O‘sha manba: – B. 599.

“**AMAL** [*a.* ish, harakat] **1** Ilm, nazariya, fikr va sh.k.ning hayotiy reallashuvi. **2** E'tiqodga oid ish, aqida ishi. **3** Umuman, bajarilishi lozim bo'lgan ish, amaliy ish. **4** Mas'ul vazifa, mansab. **5** Iloj-imkon, chora. **6** *ko'chma*. Uyg'onish, hayot boshlanishi (o'simlik, daraxt kabilar haqida). **7** *mat.* Matematik hisobning har bir turi. **8** *etn.* Istitish, sovitish, birovning ishini orqaga ketkizish, turgan uyidan bezdirish va sh.k. maqsadlarda dam solingan narsa; sehr-jodu”<sup>21</sup>.

Izohlardan uchinchi va to'rtinchi ma'nolar ish yuritishga oidligi seziladi. Ammo leksikografik belgisiz oddiy kitobxon buni anglamaydi va bu maxsus tadqiqot natijasida muayyanlashadi.

Birikmali holdagi ish yuritish terminlarining berilishi ham o'zbek tilining izohli lug'atida uchraydi. Masalan, **bozor iqtisodiyoti** termini “tovar-pul munosabatlariga asoslangan, turli mulkchilikka hamda iqtisodiy erkinlikka tayangan va raqobat asosida tartibga solib turiladigan demokratik iqtisodiyot<sup>22</sup>” ma'nosini bildiradi. To'g'ri, bu termin bosh so'z sifatida qayd etilmagan bo'lsa-da, ma'nosiga ko'ra terminlik xususiyatiga ega. Ushbu lug'atda **vaqtli matbuot, devoriy gazeta, davriy matbuot, daromad solig'i, vasiylik daftari, kundalik daftar, uy daftari, shikoyat daftari, hisob daftari, mehnat daftarcha, omonat daftarcha, pensiya daftarcha** va shu kabi birikmali ish yuritish terminlari uchraydi.

Bobning “**Izohli lug'atlarda ish yuritish terminlari uchun illyustrativ misollarning berilishi**” nomli ikkinchi bo'limida mavjud izohli lug'atlarda lug'at maqolasi tarkibida keltirilgan illyustrativ misollar, davr o'tishi bilan izohli lug'at tarkibida ro'y beradigan turli xil o'zgarishlar, balki unda berilgan illyustrativ misollarni ham qayta ko'rib chiqish zarurati to'g'risida fikr yuritildi.

O'zbek tili izohli lug'atlarida ish yuritish sohasiga doir terminlarga tuzilgan lug'at maqolalarida illyustrativ misollar bilan bog'liq quyidagi holatlarni kuzatish mumkin:

- 1) gap shaklidagi illyustrativ misollar;
- 2) so'z birikmasi (ba'zan qo'shma fe'l) shaklidagi illyustrativ misollar;
- 3) illyustrativ misollar berilmagan leksemalar.

Ish yuritish sohasiga doir terminlarga illyustrativ misollar, asosan, badiiy va ilmiy asarlar, rasmiy ish hujjatlaridan parchalar keltiriladi.

Ikki jildli izohli lug'atda bosh so'z sifatida keltirilgan **bayonot** (I; 72), **bayonnoma** (I; 72), **baladiya** (I; 74), **bekorlik** (I; 98), **bibliograf** (I; 110), **biblioteka** (I; 110), **biznes** (I; 111), **biznesmen** (I; 111), **birja** (I; 118), **birjachi** (I; 118), **dasturilamal** (I; 214), **doktorant** (I; 232), **doktorantura** (I; 232), **sinov** (II; 52), **skrepka** (II; 60), **stipendiya** (II; 77), **sudlanuvchi** (II; 81), **sudlanmoq** (II; 81), **sudlamoq** (II; 81) kabi ko'plab ish yuritish sohasiga doir leksik birliklarga illyustrativ misollar berilmagan.

Kelajakda yaratiladigan ko'p jildli izohli lug'atlarda ish yuritish terminlari izohlarining takomillashtirilishiga e'tibor qaratish lozim. Lug'atlarning ish yuritishga oid leksemalar qamrovi jonli til sathidagi mavjud so'zlar, birikma terminlar va atov

<sup>21</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: “O'zbekiston nashriyoti” Davlat unitar korxonasi, 2020. 1-jild. – B. 77.

<sup>22</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: “O'zbekiston nashriyoti” Davlat unitar korxonasi, 2020. 1-jild. – B. 299.

birliklari bilan kengayishi neoterminlarning milliy terminlar bilan almashinishini ta'minlaydi.

III bobning “**O‘zbek tilidagi ish yuritishga oid terminlarni korpusda semantik teglash: muammo va yechim**” nomli uchinchi bo‘limida korpus lingvistikasidagi leksemalarga avtomatik ishlov berish, ma’noni tahlil qilish bilan bog‘liq masalalar tahlili yoritildi.

Kompyuter dasturlari, asosan, til birliklarini shakliga qarab tahlil qila oladi, ma’noni tahlil qilishga qisman erishish mumkin, ammo to‘la semantik tahlilga erishish mushkul. Shunday bo‘lsa-da, jahon korpus lingvistikasida bu muammoning yechimini topishga qaratilgan ishlar bajarilyapti: tezaurus, avtomatik annotatsiyalash, WordNet, konsept asosida so‘z ma’nosini aniqlash amaliyotini shunday ishlar sirasiga kiritish mumkin. Dunyo tilshunosligida korpus birliklarini leksik-semantik teglash muammolari G.I.Kustova, O.N.Lyashevskaya, Y.V.Paducheva, Y.V.Raxilina, A.V.Sannikov, V.G.Sizov, Y.D.Apresyan, L.L.Iomdin kabi olimlar tadqiqotlari<sup>23</sup> predmeti bo‘lgan.


Ishning ushbu qismida o‘zbek tili ta’limiy korpusi uchun ish yuritish terminlarini semantik teglash, ularning ma’lumotlar omborini yaratish, leksikografik mahsulotlarni tanlash masalalariga urg‘u berildi. Buning uchun quyidagi vazifalarni belgilab olish kerak:

1. Ish yuritish terminlari ma’lumotlar omborini yaratish.
2. Ta’limiy korpusda ish yuritish terminlari qidiruvini ishlab chiqish.

D.Axmedovanning tadqiqotida lug‘atlarning til korpusida semantik teglash uchun lingvistik ta’minot vazifasini bajarishi isbotlangan bo‘lib<sup>24</sup>, biz ham shu asosda o‘zbek tilining izohli lug‘atidagi (2 va 5-jildli) ish yuritish terminlarini korpusda semantik teglashdagi muammo va yechimlarni aniqlashni maqsad qilib belgiladik.

Ma’lumotlar omborini tuzishda dastlab uning strukturasi, tarkibi aniqlanishi lozim. O‘zbek tili ta’limiy korpusi uchun ish yuritish terminlarining ma’lumotlar bazasi tuzilishi quyidagicha bo‘lishi maqsadga muvofiq:

4-jadval



<sup>23</sup> Апресян Ю.Д., Иомдин Л.Л., Санников А.В., Сизов В.Г. Семантическая разметка в глубоко аннотированном корпусе русского языка // Труды международной конференции «Корпусная лингвистика – 2004». – Санкт-Петербург: Издательство Санкт-Петербургского университета, 2004. – С. 41-54.

<sup>24</sup> Axmedova D.B. Atov birliklarini o‘zbek tili korpuslari uchun leksik-semantik teglashning lingvistik asos va modellari: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. ...(PhD) diss. – Buxoro, 2020. – 247 b.

O‘zbek tili milliy korpusida ish yuritish terminlari ma’lumotlar bazasining leksikografik ta’minoti ma’lumotlar bazasiga ma’lumotlarni kiritish uchun asos bo‘ladi.

O‘zbek tili milliy korpusida ish yuritish terminlari ma’lumotlar bazasining lingvistik ta’minoti ma’lumotlar omborida so‘zlarning izohini keltirish bo‘yicha qoidalar to‘plamini tashkil qiladi.

O‘zbek tili ish yuritish terminlari ma’lumotlar omboriga quyidagi ko‘rinishda kiritilishi mumkin:

5-jadval

№	Ish yuritish terminlari	Maxsus pometa	Semantik guruh	Izoh
1	<b>AYBDOR</b>	Turdosh ot	Shaxs oti	<b>AYBDOR</b> <i>ot, huq.</i> Jinoiy ish qilgan, qonunga xilof ish qilgan, jinoiy javobgar kishi. <i>Navbatchi militsioner aybdorni olib chiqib ketdi.</i> H.G‘ulom, Mash‘al. <i>Aybdor va loqayd rahbarlarga nisbatan murosasizlik qilib kelingan.</i> Gazetadan.
2	<b>BILDIRISH-NOMA</b>	Turdosh ot	Narsa nomi	Yuqori organlar yoki mansabdor shaxsga biror ma’lumotni yetkazish lozim bo‘lganda taqdim etiladigan mufassal yozma axborot. <i>Kinga yo‘llanganiga qarab, bildirishnoma ichki va tashqi turlarga bo‘linadi.</i> “Ish yuritish”.

Leksik-semantik teglar taksonomiya, mereologiya, topologiya, kauzatsiya, baho guruhlari bo‘yicha aniqlanadi. Ish yuritish terminlari ma’lumotlar bazasini yaratishda so‘zlik, semantik izoh va semantik teglar talab etiladi.

O‘TILda berilgan ayrim ish yuritish terminlariga e’tibor qaratsak:

**AVIZO** [*ital.* awiso < *lot.* avis – qush] Bank, tijorat amaliyotida hisob-kitob muomalalarining bajarilganligi to‘g‘risida bir ahdlashuvchi tomonning ikkinchisiga yuboradigan rasmiy xabarnomasi<sup>25</sup>.

**AKT** [*lot.* actus; actum – amal, harakat; hujjat, qaror] **1** Biron-bir sodir etilgan ish, xatti-harakat yoki bo‘lib o‘tgan voqea, hodisa. *Terroristik akt.* **2** Muassasa yoki ayrim shaxs (shaxslar)ga oid xatti-harakat (voqea, hodisa) yoki holatni tasdiqlash, guvohlik asosida qayd etuvchi, birdan ortiq kishi tomonidan tuzilgan hujjat; dalolatnoma. **3** *huq.* Yuridik ahamiyatga ega qaror yoki hujjat. *Yerdan foydalanish haqidagi akt.* **4** Dramatik asar yoki teatr tomoshasining tugallangan qismi; parda<sup>26</sup>.

Ko‘rinyaptiki, lug‘atdagi ish yuritish terminlari izohida maxsus ko‘rsatma, havola va pometalari mavjud emas. Shu sababli axborot ma’lumotlar bazasida

<sup>25</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 1-jild. – B. 29.

<sup>26</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 1-jild. – B. 69.

qo‘lda ishlov berilishi kerak. Ma’lumotlar omborida ushbu terminlarning semantik teglanishi quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

6-jadval

№	Ish yuritish terminlari	Pometa	Semantik teg	Izoh
1	<b>AVIZO</b>	Odamning faoliyati bilan bog‘liq	Narsa	Bank, tijorat amaliyotida hisob-kitob muomalalarining bajarilganligi to‘g‘risida bir ahdlashuvchi tomonning ikkinchisiga yuboradigan rasmiy xabarnomasi.
2	<b>AKT</b>	Birdan ortiq kishi tomonidan tuzilgan hujjat	Narsa	<b>1</b> Biron-bir sodir etilgan ish, xatti-harakat yoki bo‘lib o‘tgan voqea, hodisa. <i>Terroristik akt.</i> <b>2</b> Muassasa yoki ayrim shaxs (shaxslar)ga oid xatti-harakat (voqea, hodisa) yoki holatni tasdiqlash, guvohlik asosida qayd etuvchi, birdan ortiq kishi tomonidan tuzilgan hujjat; dalolatnoma. <b>3</b> <i>huq.</i> Yuridik ahamiyatga ega qaror yoki hujjat. <i>Yerdan foydalanish haqidagi akt.</i> <b>4</b> Dramatik asar yoki teatr tomoshasining tugallangan qismi; parda

O‘zbek tili ish yuritish terminlarini semantik teglash jarayonida muammolar kelib chiqishi tabiiy. Chunki o‘zbek tilidagi aksar so‘zlar ko‘p ma’noli, omonim bo‘lib, bu semantik razmetka tizimida ko‘p ma’nolilik, omonimlikni bartaraf etish uchun mukammal filtrlar ishlab chiqishni taqozo etadi. Buni tadqiqotchi Sh.Gulyamova ko‘p ma’noli, omonim va polifunksional so‘zlarni bartaraf etish bo‘yicha ishlab chiqqan tavsiyasi asosida semantik teglash maqsadga muvofiq<sup>27</sup>. Buning uchun dastavval ularning har biri alohida razmetkalanib, so‘zlar orasidagi ko‘p ma’nolilik, omonimlik va polifunksionallik filtr bilan va u orqali yaratiladigan lingvistik model orqali farqlanadi. Anglashiladiki, o‘zbek tilidagi ish yuritish terminlarini korpusda semantik teglash masalasi alohida tadqiqot sifatida keng o‘rganilishi lozim.

<sup>27</sup> Gulyamova Sh. O‘zbek tili semantik analizatorining lingvistik asoslari: Filol. fan. dokt. (DSc) ... diss. – Farg‘ona, 2022. – 281 b.

## XULOSA

1. O‘zbek tili terminologiyasi tizimida ish yuritish terminologiyasi murakkab tarkibli mikrotizim sifatida quyidagi masalalari yechimini taqozo qiladi: ish yuritish sohasi terminlari tizimi tarkibini leksik, semasiologik, leksikografik, korpusshunoslik aspektida yangidan tadqiq qilish, o‘zbek tili terminlarini tartibga solish dolzarb masalalari doirasida ish yuritish sohasiga bevosita va bilvosita aloqador terminologik birliklarning statistik, struktur xususiyatlarini tahlil qilish, izohli lug‘at uchun soha birliklarini tanlash mezonlarini ishlab chiqish kabilar.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘atining keyingi nashrlarida ish yuritishga bilvosita aloqador bo‘lgan terminologik birliklar *ish yuritish termini*, shartli ravishda *ish.yurt* pometasi bilan berilishi maqsadga muvofiq. Ikki tomli va besh jildli o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida ish yuritishga oid terminlarning tarixiy-etimologik xususiyatlari talqinida farqlar mavjud. Xususan, 2 tomli O‘TILda ish yuritishga oid leksema-terminlarning qaysi tildan olinganligi haqida to‘liq ma‘lumotlar qayd etilmagan. 5 jildli O‘TILda esa terminlarga berilgan genetik-etimologik ma‘lumot ancha to‘liqroq. Har ikkala O‘TILda ham o‘zbek(turk)cha asosli leksema-terminlar 10 % ni tashkil etgan. Har ikki O‘TILda o‘zlashma qatlam, xususan, arab tiliga mansub birliklar salmoqli o‘rinni egallaydi. Izohli lug‘atlarga hali kiritilmagan birliklarni lug‘atlarda aks ettirish, ish yuritish amaliyotida faol qo‘llash orqali o‘zbek tilining lingvistik, pragmatik imkoniyatlarini namoyon qilish ta‘minlanadi.

3. O‘TILda berilgan ish yuritishga aloqador terminlar tuzilishi jihatdan sodda, qo‘shma, juft, birikma, qisqartma leksema-terminlar guruhlariga ajraladi. Shuningdek, soha terminologiyasiga so‘nggi yillarda kirib kelgan gibrid (qorishiq elementli) (*kibermaydon, kiberjinoyatchilik* kabi) qo‘shma terminlar ham O‘TILga kiritilishi zarur. Birikmali terminlar tarkibidagi har bir lug‘aviy birlik alohida maqomga ega, ular tarkibida murakkab mazmun ifodalanadi. O‘TILning yangi nashrida ish yuritishga mansub birikma shaklidagi terminlar ham maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. O‘TILda *-noma* hujjat nomlarini yasovchi faol qo‘shimcha sifatida maxsuslashgan: *arznoma, taklifnoma, iltimosnoma, ishonchnoma* va hokazo. Umumiste‘mol tiliga yaqin bu xususiyat ish yuritish terminologiyasini milliy terminlar bilan boyitishda e‘tibordan chetda qoldirilmasligi kerak.

4. Ish yuritishga oid terminlarning terminlik ma‘nosining qat‘iy tamoyil asosida berilishi terminlar izohini tushunish va tushuntirish bilan bog‘liq turli murakkabliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Ba‘zi ish yuritishga oid terminlarning ma‘nolari berilishida dastlabki (1981-yilgi) va joriy O‘TILda farqlangan holatlar mavjud. Masalan, 1981-yilgi O‘TILda “*adres*” so‘zining ko‘p ma‘noli so‘z sifatidagi 3 ta izohi berilgan bo‘lsa, keyinchalik ma‘noviy o‘zgarishga uchragan ushbu tushunchaning taraqqiyoti natijasida 2006-2008, 2020-yillardagi O‘TILda yana bir ma‘nosi qo‘shilgan. Davr o‘tishi bilan ba‘zi terminlar sohaviy qo‘llanishiga ko‘ra o‘zgarishlarga uchrashi tabiiy hol. Lekin termin qanday sohaga tegishli bo‘lsa-da, qaysi sohada qo‘llanilishi jihatidan to‘g‘ri izohlanishi muhim hisoblanadi.

5. Leksik birliklarning semantik tavsifida uning sintagmatik struktur ma'nosi, valentligi kabilarni aniqlash muhim sanaladi. Bu lug'atdagi terminlarga lug'at maqolasida beriladigan illyustrativ misollarni to'g'ri tanlashda yordam beradi. Tahlillarimiz natijasida O'TILdagi (2 tomli va 5 jildli) bevosita va bilvosita yuritishga oid terminlar semantik mundarijasiga ko'ra o'n beshta mazmuniy guruh asosida tasniflandi. Polisemantik ish yuritish terminlari sememalarining o'zaro munosabatidan kelib chiqib lug'atda berilishi 3 xil shaklda kuzatiladi: bir tarmoq doirasidagi polisemantik ish yuritish terminlari; turli tarmoq doirasida polisemantik ish yuritish terminlari; umumiste'mol leksema sifatida ham qo'llaniluvchi polisemantik ish yuritish terminlari.

6. Ish yuritish terminlarida ko'p ma'nolilikning kelib chiqishi, asosan, terminlarning turli sohalarda o'ziga xos ma'nolarda qo'llanilishi bilan bog'liq. Termin bir sohadan ikkinchi sohaga ko'chayotganda o'zining mohiyatiga aloqador semalarni saqlash barobarida o'tayotgan sohaning xususiyatlaridan kelib chiqib unga qo'shimcha sememalar yuklanadi. Natijada u polisemantik terminga aylanadi. Terminlarga qo'yilgan bir ma'nolilik talabini terminning muayyan bir kontekstda faqat bitta ma'noni ifodalashi, aniq bir tushunchani anglatishi sifatida tushunish maqsadga muvofiq. Shuningdek, ish yuritish terminlarining polisemantikligi, sememalari orasidagi ma'noviy bog'liqlikning darajasini mukammal tekshirishga zarurat bor.

7. O'zbek tili leksikasining tarkibiy qismi bo'lgan ish yuritish terminlarining semantikasidagi integral va differensial semalarni aniqlash, funksional semalari imkoniyatlarini ochib berish, mazmuniy o'ziga xosliklarni belgilash, o'zaro semantik munosabatlarni aniqlashtirish, tilning ichki imkoniyatlari asosida hosil qilingan terminlarning umumiste'mol leksikadan farqli xususiyatlarini ochib berish ularning lug'atlardagi izohlarining mukammallashishiga yordam beradi. O'TILda berilgan ish yuritish doirasidagi terminlarda quyidagi holatlarda ma'nodoshlik yuzaga kelganligi kuzatiladi: baynalmilal terminlarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish orqali; umumiste'molda qo'llaniladigan so'zlarning ma'nosini maxsuslashtirish orqali; eskirgan so'zlarni to'laligicha iste'moldan chiqib ketmaganligi sababli.

8. O'TILda berilgan ish yuritishga oid terminlarda antonimiya, omonimiya, giponimiya hodisalari ham kuzatiladi. Bunda, asosan, affiksial, ba'zan leksik antonimlik holatlari, bir so'z turkumi doirasida va turli turkum doirasidagi omonimlik, umumiste'moldagi so'zlar va boshqa sohaviy terminlar bilan shakldoshlik, jins-tur munosabatidagi leksemalar yetakchilik qiladi. Terminlarni izohli lug'at uchun tanlashda uning tegishlilik sohasi bo'yicha ta'rifi, izohiga tayanish lozim. Bu borada, ish yuritishga oid terminlarning izohli lug'atlardagi izohida quyidagilarga amal qilishni tavsiya qilamiz: to'liqlik tamoyili; aniqlik tamoyili; ixchamlik tamoyili; soddalik tamoyili.

9. Lug'atlarni boyitib borish ishi muntazam amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Xususan, o'zbek tilining izohli lug'atlarida (ikki va besh jildli) beriladigan ish yuritishga oid terminlarni tanlab olish mezonini quyidagicha bo'lishi maqsadga

muvofiq: mazmuniy guruhlarga ko‘ra tanlash mezon; yangilik bo‘yog‘iga ko‘ra (neoterminologik birlikni) tanlash mezon; faollik darajasiga ko‘ra tanlash mezon.

10. Lug‘atda terminlar uchun illyustrativ misollarning berilishi bu birliklarni umumadabiy til birliklaridan farqli jihatlarini ko‘rsatib beradi. Lug‘atda ayrim terminlarga illyustrativ misol berilmagan o‘rinlar mavjud. Ijtimoiy munosabatda adabiy til birliklaridan farqli ravishda turli fan sohasiga tegishli terminologik birliklarning lug‘at maqolasida illyustrativ misollarning berilishini muhim.

11. **Ish yuritish terminlari** semantik ma‘lumotlar bazasini yaratishda so‘zlik, semantik izoh va semantik teglar talab etiladi. Ma‘lumotlar omboriga kiritiladigan axborotlar so‘z, izoh, ish yuritish termini ekanligi haqidagi belgi, semantik teg, etimologiyasi, terminning turkumga mansubligi kabi parametrlardan tashkil topadi.

O‘zbek tili milliy korpusi uchun **ish yuritish terminlari** bazasi ish yuritish terminlari (1), leksikografik ta‘minot (2) va lingvistik ta‘minot (3) kabi tarkibiy qismlardan tarkib topishi maqsadga muvofiq. O‘zbek tilining izohli lug‘atlaridagi ish yuritish terminlari izohida maxsus ko‘rsatma, havola va pometalar mavjud emasligini inobatga olib, axborot ma‘lumotlar bazasida qo‘lda ishlov berilishi kerak. Shundagina ma‘lumotlar bazasi mukammal bo‘ladi va ularni semantik razmetkalash muammosi qisman hal etiladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING  
SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/30.12. 2021.Fil.70.01.  
AT KARSHI STATE UNIVERSITY**

---

**KARSHI STATE UNIVERSITY**

**SAIDOV ULMAS RAKHMATOVICH**

**REPRESENTATION OF ADMINISTRATIVE TERMS IN  
EXPLANATORY DICTIONARIES OF UZBEK LANGUAGE**

10.00.01 – Uzbek language

**ABSTRACT**  
**of the dissertation of philosophy doctor (PhD) on philological sciences**

**Karshi – 2023**

The theme of dissertation of the doctor of philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission under the number B2023.1.PhD/Fil3060.

The dissertation has been completed at Chirchik State Pedagogical University.

The abstract of the dissertation has been posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website of the Scientific Council ([www.qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) and on the information and educational portal "ZiyoNet" ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Scientific supervisor:** Shofkorov Abdishukur Musaevich  
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

**Official opponents:** Jumaev Tursunali  
Doctor of Philological sciences, Associate Professor  
Sadinova Nafisa Usmanovna  
Philosophy doctor on Philological sciences (PhD),  
Associate Professor

**Leading organization:** Samarkand State University

The defense of the dissertation will take place on "20" *iyun* 2023 at *12<sup>00</sup>* hours at the meeting of the Scientific Council under the number DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 at Karshi State University (Address: 180103, Karshi, Kochabog st., 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; fax: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz). Karshi State University, Building №2, Room №202.

The dissertation can be found at the Information Resource Center of Karshi State University (registered under the number *169*). (Address: 180103, Karshi, Kochabog st., 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; fax: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz).

The abstract of the dissertation was sent on "08" *06* 2023  
(Registry Protocol No. *8* dated "08" *06* 2023).

  
N.N.Shodmonov  
Chairman of the Scientific council  
awarding scientific degrees,  
Doctor of Philological Sciences, Professor  
G.N.Tojiyeva  
Scientific secretary of the Scientific  
Council awarding scientific degrees,  
Doctor of Philological Sciences (DSc),  
Associate Professor  
Kh.Jabborov  
Chairman of the Scientific seminar at the  
Scientific council for awarding scientific degrees,  
Doctor of Philological sciences, Professor

## **INTRODUCTION (abstract of Philosophy Doctor (PhD) dissertation)**

**Relevance and necessity of the dissertation topic.** In world linguistics, revealing the development of a language in close connection with the development of society and the nation is one of the most important tasks. In recent years, work on the definition of terminology by field has been rapidly developing. There is also an increasing need to regulate terms related to the field and improve their presentation in explanatory dictionaries. Systematic disclosure of regional vocabulary, terminological units, definition of ideographic construction, semantic features, clarification of social functions and historical development of the language, clarification of the nominative, communicative, accumulative functions of terms are of great practical importance in ensuring the level of perfection and efficiency of electronic lexicographic products based on computer technology.

In world linguistics, the problem of studying, systematizing, linguistic and lexicographic interpretation of the system of clerical terms in the state language is in the center of attention of linguists. Explanatory dictionaries, which show the terminological system of a particular language, as well as the general richness of the language, are considered one of the largest scientific studies in this field for any linguistics. Linguistics has made significant progress in this field. Currently, much attention is paid to the origins of the formation and development of the terminology of fields, the concept of the term, the history of terminological research, systematic construction, macro- and microsystems of terminological systems, the basics and methods of term formation, ideographic structure, translation, interterminal synonymy, polysemy, homonymy, phenomena of antonymy and hyponymy, creation of software, linguistic support of language units in corpora.

Although a number of studies have been carried out in Uzbek linguistics on the terminology of all fields, such issues as the study of the semantic and structural features of terms related specifically to the field of office administration, determining their place in the lexical level of the language, clarifying the meanings of terms, polysemy, improving their lexicographic interpretations, have not been the source of specialized research. “Preservation of the purity of the state language, its enrichment and improvement of the speech culture of the population, the creation of educational dictionaries for all types of continuous education based on existing dictionaries in the Uzbek language”<sup>28</sup>. Until a scientific study of clerical terms based on modern lexicographic principles is provided, it is difficult for them to take a full-fledged place in the corpus of the national language. In accordance with modern requirements, natural language processing based on modern lexicographic principles of clerical terms, the creation of linguistic support for language corpora is of great scientific and practical importance.

This dissertation work to a certain extent serves to fulfill the tasks defined in the decrees of the President of the Republic of Uzbekistan PD-No. 5850 dated

---

<sup>28</sup> “On measures for the further development of Uzbek language and the improvement of language policy in our country”. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan PD-No. 6084 dated October 20, 2020 // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

October 21, 2019 “On measures to radically increase the prestige and position of Uzbek language as a state language”, PD-No. 6084 dated October 20, 2020 “On measures for the further development of Uzbek language and improvement of the language policy in our country”, resolutions PR-2789 dated February 17, 2017 “On measures to further improvement of the organization, management and financing of the research activities of the Academy of Sciences”, PR-4479 dated October 4 2019 “On the wide celebration of the thirtieth anniversary of the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan “On the State Language”” and in other regulatory legal acts related to this activity.

**Compliance of the study with priority areas of development of science and technology of the republic.** This study has been carried out within the framework of the priority direction of the development of science and technology of the republic I. “Ways for the formation and implementation of a system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and a democratic state”.

**The degree of study of the problem.** In world linguistics, a lot of work has been done on the issues of terminology. In this direction, the works of G.N.Gornostaev, N.N.Zabinkova, N.N.Kaden, E.Wooster, H.Felber, V.P.Danilenko, J.K.Seiger, B.P.Tikhomirov, Gerd A.S., Lotte D.S., Frolova O.P., Alekseev Y.B., Gubanov I.A., Akhmanova O.S., I.Grul, M.E.Kirpichnikov, Y.S.Kubryakova, R.Temmermen, A.Z.Sisik, G.I.Shevchenko deserve special attention<sup>29</sup>.

On Uzbek terminology, the studies of A.Khodjiev, Kh.Jamolxanov, R.Donierov, O.Usmonov, M.Umarkhozhayev, Kh.Dadaboev, I.Sadykova, S.Nurmatova, O.Tursunova, P.Nishonov, O.Akhmedov, Kh.Mirzakhmedova, M.Abdiev, I.Yuldoshev, Z.Mirakhmedova, G.Ismailov, S.Mukhamedova, S.Mustafaeva deserve attention<sup>30</sup>.

---

<sup>29</sup> Горностаев Г.Н., Забинкова Н.Н., Каден Н.Н. Латинские названия животных и растений. – М.: Изд-во МГУ, 1974. – 146 с.; Felber H. International standardization of terminology: theoretical and methodological aspects. – Paris: Vienna, 1977. – P. 264; Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – 200 с.; Wuster E. Einfurung in die Allgemeine Terminologielehre und terminologishe Lexicographie. – Vien: N.Y., 1979 / Bd 1-2. – P. 213; Герд А.С. Формирование терминологической структуры русского биологического текста. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1981. – 112 с.; Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминологических элементов. – М.: Наука, 1982. – С. 154; Фролова О.П. Китайская терминология как лексическая подсистема / Сб. тезисов II конф. по китайскому языкознанию. – М., 1984. – С. 77-79; Алексеев Е.Б., Губанов И.А., Тихомиров В.П. Ботаническая номенклатура. – М.: Изд-во МГУ, 1989. – 166 с.; Sager J.C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1990. – P. 262; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966. – 607 с.; Груль И. К вопросу о номинации некоторых биологических терминов / Словообразование и номинативная деривация в славянских языках. Материалы VI Международной науч. конф. – Гродно, 1998. – С. 211-214; Кирпичников М.Э. Библиография, терминология, номенклатура. – СПб.: Мир и семья, 1998. – 157 с.; Цисык А.З., Шевченко Г.И. Дверь в латинский язык и биологическую терминологию. – Минск, 1999. – 115 с.; Temmerman R. Towards new ways of terminology description. The sociocognitive approach. – John Benjamins Publishing Company, 2000. – P. 258.

